

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va
geologiya vazirligining
2023-yil 10 oktyabrdagi 103-son buyrug‘iga
ilova

“REGIONALGEOLOGIYA”
Davlat muassasasining
U S T A V I

Toshkent viloyati - 2023 yil

I. Umumiy qoidalar

1.1. “REGIONALGEOLOGIYA” DM (keyingi o‘rinlarda-Davlat muassasasi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-116-son Farmoniga muvofiq qayta tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Kon-geologiya vazirligi tizimiga kiradi.

Davlat muassasasi “REGIONALGEOLOGIYA” davlat unitar korxonasi huquqiy vorisi hisoblanadi.

1.2. Davlat muassasasi xo‘jalik hisobidan moliyalashtiriladigan yuridik shaxs hisoblanadi.

1.3. Davlat muassasasi to‘liq rasmiy nomlanishi:

davlat tilida: O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tarkibidagi “REGIONALGEOLOGIYA” Davlat muassasasi (qisqartirilgan nomi: “REGIONALGEOLOGIYA” DM);

ingliz tilida: State institution “REGIONALGEOLOGIYA” under the Ministry of mining industry and geology of the Republic of Uzbekistan - (qisqartirilgan nomi: SI “REGIONALGEOLOGIYA”);

rus tilida: Государственное учреждение “РЕГИОНАЛГЕОЛОГИЯ” при Министерстве горнодобывающей промышленности и геологии Республики Узбекистан (qisqartirilgan nomi: ГУ “РЕГИОНАЛГЕОЛОГИЯ”).

1.4. Davlat muassasasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Kon-geologiya vazirligining buyruqlari, farmoyishlari, shuningdek mazkur Ustav asosida amalga oshiradi.

1.5. Davlat muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, bank hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

1.6. Davlat muassasasi belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, shuningdek, zimmasiga majburiyatlar olishi, suda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

1.7. Davlat muassasasi joylashgan joyi (pochta manzili): pochta indeksi:111800, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Zangiota tuman, Eshonguzar qo‘rg‘oni, Mustaqillik ko‘chasi, 21-uy.

Davlat muassasasi balansidagi joylarda o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan barcha turdagi transport (traktor, shu jumladan zanjirli, ekskavator, yuk mashinalari, avtokran, avtobus - barcha turdagi, yengil mashinalar va boshqalar) vositalarini saqlash va ta‘mirlash uchun avtogaraj manzillari:

1) Toshkent viloyati, Zangiota tuman, Eshonguzar qo‘rg‘oni, Mustaqillik ko‘chasi, 20-uy;

2) Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayqaliy ko‘chasi, 3-uy;

3) Samarqand viloyati, Samarqand shahar, Geologlar qo‘rg‘oni;

4) Navoiy viloyati, Karmana tumani, “Narpay” QFY, Narpay mavzesi;